



KREDIT SHARTNOMASIGA QO'SHILISH TO'G'RSIDA UMUMIY SHARTLAR

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda “Oferta” deb yuritiladi) «Tenge Bank» ATBning (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) Yakka tartibdagi tadbirkorlarga (bundan buyon matnda “YTT” deb yuritiladi) yo'llangan Bank bilan «Tenge Business» MBX orqali Kredit shartnomasiga qo'shilish yo'li bilan Mikro kredit berish to'g'risida shartnoma (bundan buyon matnda “Shartnoma” deb yuritiladi) tuzish bo'yicha, ushbu Ofertaning umumiy shartlari, kreditlash va Shartnoma shartlari asosida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasiga muvofiq` quyida ko'rsatilgan shartlar asosida Bankning rasmiy taklifi hisoblanadi

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Agar kontekstdan boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu Hujjatda foydalaniladigan iboralar quyidagi ma'nolarga ega:

Bank	«TENGE BANK» ATB
Qarz Oluvchi/Mijoz	Qarz oluvchi/Mijoz – Ofertani aktseptlash, kredit shartnomasiga kredit arizasini Ma`qullash va uni ERI yordamida imzolash orqali Individual kredit shartnomasiga qo'shilish to'g'risidagi umumiy shartlarga qo'shilish yo'li bilan Bank bilan kredit shartnomasini tuzadigan yakka tartibdagi tadbirkor.
Kredit arizasi	Kredit olish uchun murojaat qilish maqsadida Qarz oluvchi tomonidan to'ldiriladigan, imzolanadigan (shu jumladan ERI) va Bankka taqdim etiladigan hujjat.
Mikrokredit	Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan kredit arizasi va Kredit shartnomasiga qo'shilish to'g'risidagi umumiy shartlar doirasida berilgan bank krediti
«Tenge Business» MBX	Masofaviy bank xizmat ko'rsatish tizimi, Bank va Qarz oluvchining o'zaro munosabatini Autentifikatsiya ma'lumotlaridan foydalangan holda amalga oshirishga, va/yoki Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan shartnomalar, shu jumladan axborot almashish va alohida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha axborotlarni mobil qurilmaning (smartfon, planshet, noutbuk va boshqalar) maxsus ilovalari orqali taqdim etish imkonini beruvchi Bank servisi.
Autentifikatsiya ma'lumotlari	Qarz oluvchining kirish kodlari, noyob login (login) va parol (password), shuningdek kirish va operatsiyalarni amalga oshirish uchun, shu jumladan «Tenge Business» DBO va/yoki boshqa Internet tarmog'idagi xizmat kanallari va uyali aloqa kanallari orqali Kartadan foydalangan holda ishlatiladigan boshqa ma'lumotlar. Autentifikatsiya ma'lumotlari Mijozning vakolatli shaxslarining shaxsan qo'yilgan imzosining analogidir.
Kredit arizasini ma`qullash	Qarz oluvchi tomonidan kredit transhini taqdim etish shartlarini kredit transhining summasi, valyutasi, muddatlari, mukofot stavkalari ko'rsatilgan holda ma`qullash va imzolash (shu jumladan ERI).
Kreditni so`ndirish jadvali	Qarz oluvchi tomonidan asosiy qarzni so`ndirishga yo'naltiriladigan kredit transhi bo'yicha to'lovlar summasi va sanasi, shuningdek kredit transhidan foydalanganlik uchun foizlarni so`ndirish uchun yo'naltiriladigan to'lovlar sanasi to'g'risidagi axborot.

Sayt	Internet-resurs https://www.tengebank.uz , undan foydalangan holda Qarz oluvchi va Bankning o'zaro hamkorligi axborot almashish orqali amalga oshiriladi va unda Oferta e'lon qilinadi
Bank tizimining DT	Mijozni ro'yxatdan o'tkazish/ kreditni rasmiylashtirish uchun Qarz oluvchiga kirish huquqi berilgan kredit arizalariga ishlov berish uchun axborot tizimi.
ERI (Elektron raqamli imzo)	Elektron raqamli imzo, elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda ushbu elektron hujjat axborotlarini maxsus o'zgartirish natijasida olingan elektron hujjatdagi imzo va elektron raqamli imzoning ochiq kalitidan foydalanib, elektron hujjatdagi axborotlarning buzilishi yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzoning yopiq kaliti egasini identifikatsiyalash imkonini beradi. Elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo 2022 yil 12 oktyabrdagi O'zR-793-sonli "Elektron raqamli imzo haqida"gi qonuniga muvofiq qog'oz hujjatga qo'lda shaxsan qo'yilgan imzo bilan bir xil ahamiyatga ega.
MyID	jismoniy shaxslarni bank yoki boshqa xizmatlardan onlayn tarzda ruxsat etilgan foydalanish imkoniyatini berish uchun yuzning biometrik parametrlari (yuz geometriyasi bo'yicha) bo'yicha identifikatsiya qilish va autentifikatsiya qilish imkonini beruvchi ilova. Ilova UZINFOCOM egasi bo'lgan axborot tizimi bo'lib, old kameraga ega, Android va iOS operatsion tizimlari boshqaruvida ishlaydigan va Internet tarmog'iga ulangan mobil qurilmalar (smartfon, planshet yoki boshqa qurilma) uchun mo'ljallangan
Mikrokredit berilgan sana	Bank kredit mablag'larini talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga kiritilgan sana
Mijozni verifikatsiya qilish	Bank tomonidan olingan va mavjud bo'lgan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarining dolzarbligi, to'g'riligi va to'liqligini tekshirish.
Shaxsga ma'lumotlarga doir berish	Shaxsga doir ma'lumotlar bilan avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan amalga oshiriladigan har qanday harakat (operatsiya) yoki harakatlar (operatsiyalar) to'plami, shu jumladan yig'ish, yozib olish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), chiqarib olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), egasizlantirish, blokirovka qilish, shaxsfa doir ma'lumotlarni o'chirish, yo'q qilish.
Shaxsga ma'lumotlarning maxfiyligi	Bank va mijoz/qarz oluvchi tomonidan, ularning tarqalishiga va / yoki oshkor qilinishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha rioya qilinishi majburiy bo'lgan talab. Bunda shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor qilish, faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq mumkin bo'ladi
Kredit (skoring) skoringi	Bankning belgilangan ichki normativ hujjatlariga muvofiq mijozlarning/qarz oluvchilarning kreditga layoqatlilikini (kredit tavakkalchiliklarini) baholash tizimi.
Xabarnoma	Bank tomonidan mijozga/qarz oluvchiga elektron shaklda elektron pochta, SMS-xabarlar va boshqa ma'lum bo'lgan aloqa kanallaridan foydalangan holda yuborilgan xabar.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Ushbu Oferta Bankning rasmiy saytida e'lon qilinadi. Qarz oluvchi ushbu Oferta shartlari, shu jumladan ushbu Oferta matniga kiritiladigan o'zgartirishlar/qo'shimchalar bilan tanishish payti axborot e'lon qilingan va/yoki xizmatlar olingan payt hisoblanadi. Qarz oluvchini ushbu Oferta shartlari bilan tanishtirish maqsadida Bank ushbu Oferta matnini Bank saytida quyidagi manzil bo'yicha e'lon qiladi: www.tengebank.uz.

Ko'rsatib o'tilgan axborotlar e'lon qilingan sana, Bankning Internetdagi saytida quyidagi manzil bo'yicha birinchi joylashtirilgan sana hisoblanadi www.tengebank.uz.

2.2. Ushbu Oferta shartlariga muvofiq Mikrocredit olishni istagan, Qarz oluvchilar munosib bo'lishi kerak bo'lgan aniq talablar, mikrocredit summasining miqdori, muddatlari, boshqa to'lovlari, shuningdek boshqa shartlar Qarz oluvchilar e'tiboriga tegishli axborotlarni hamma foydalanishi mumkin bo'lgan joyga joylashtirish orqali yetkaziladi (Bankning Internet tarmog'idagi rasmiy saytida quyidagi manzil bo'yicha: www.tengebank.uz, MBX servislarida, Bankning Aloqa-Markazi orqali Mobil ilovada, ommaviy axborot vositalarida va boshqalarda).

2.3. Mikrocredit berish shartlari va ofertani axborot uzatish shartlarida qabul qilish va Kredit arizasi yuborish shartlari bilan rozi bo'lgan holda, Qarz oluvchi MBX vositalaridan foydalangan holda yoki Bank tomonidan belgilangan boshqa usullar bilan onlayn rejimda ushbu Ofertani aktseptlaydi. Ushbu aktsept Bank uchun Mijozni potentsial Qarz oluvchi sifatida kredit arizasini oldindan ko'rib chiqish uchun asos hisoblanadi. Bank Mijozning arizasini ma'qullagan taqdirda, Bank Qarz oluvchiga ushbu Oferta bilan **birgalikda Shartnoma hisoblangan** mikrocredit shartlarini taqdim etadi. Agar Qarz oluvchi mikrocredit shartlarini qabul qilsa (aktsept), ushbu Ofertada va mikrocredit shartlarida nazarda tutilgan shartlar asosida mikrocredit berish to'g'risidagi shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Shu bilan birga, Qarz oluvchi Bankning operatsion kuni oxirida va/yoki tashqi axborot tizimlari mavjud emasligi sababli, shuningdek Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra Shartnomani aktseptlagan taqdirda, Shartnoma Bankning keyingi birinchi operatsion kunida va/yoki tashqi axborot tizimlaridan foydalanish mumkin bo'lganda, shuningdek, Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa sabablar bartaraf etilgandan keyin tuzilgan hisoblanadi.

2.4. Mikrocredit shartlari Qarz oluvchi Mikrocreditni har bir olishidan oldin alohida belgilanadi va Bankning mobil ilovasiga o'tkaziladi. Qarz oluvchi mikrocredit shartlarini ERI yordamida imzolash orqali yoki Bank tomonidan taklif qilingan boshqa usul bilan qabul qiladi va rozi bo'ladi. Qarz oluvchi Ofertaning ushbu shartlarini aktseptlagan va Qarz oluvchi mikrocredit shartlarini qabul qilgan taqdirda, ushbu Ofertada va mikrocredit shartlarida nazarda tutilgan shartlar asosida Mikrocredit berish to'g'risidagi shartnoma (bundan buyon matnda "Shartnoma" deb yuritiladi) tuzilgan hisoblanadi va Bank va Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

2.5. Qarz oluvchi Bankning kreditga layoqatligini va Qarz oluvchining boshqa ma'lumotlarini baholash amalga oshiriladigan scoring modeli tijorat siri ekanligiga va maxfiy hisoblanishiga va Bank quyidagi hollarda sabablarni ko'rsatmagan holda unga Mikrocredit berishni rad etishga haqli ekanligiga rozi:

- Qarz oluvchini tahlil qilishning barcha tegishli bosqichlaridan va ularga taqdim etilgan ma'lumotlardan muvaffaqiyatli o'tmaslik va / yoki;
- muammoli kreditlar/qarzlar, ular bo'yicha joriy muddati o'tgan qarzdorliklar mavjud bo'lgan taqdirda;
- Mikrocredit olishning maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va/yoki terrorizmni moliyalashtirish va/yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish ekanligiga shubhalar mavjud bo'lgan taqdirda;
- Bank tomonidan taqdim etiladigan mablag'lar Qarz oluvchi tomonidan sanksiyalar va/yoki eksport-import cheklovlarini chetlab o'tish maqsadida foydalanilishiga shubha mavjud bo'lgan taqdirda;
- kredit arizasi shartlarining/ariza beruvchining bank kredit siyosati/tavakkalchilik strategiyasi talablariga mos kelmasligi bilan bog'liq boshqa holatlar;
- amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

Qarz oluvchini ushbu Oferta va Tariflar bilan tanishtirish maqsadida (shu jumladan, Bank tomonidan davriy ravishda kiritiladigan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar bilan), Bank ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni Bank saytida e'lon qiladi. Qo'shimcha ravishda, Bank Qarz oluvchiga axborot olish va uning Bankdan kelganligini aniqlash imkonini beradigan boshqa yo'llar bilan Qarz oluvchini xabardor qilishi mumkin. Ushbu axborotlarning e'lon qilingan sanasi uning Bank saytida birinchi joylashtirilgan sanasi hisoblanadi.

2.6. Ushbu Oferta va Shartnoma shartlariga rozi bo'lgan holda, shuningdek Ofertani umuman qabul qilganga, Qarz oluvchi ushbu Ofertani unda ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish, hisobvaraqqa pul mablag'larini olish, Bankda ochish va/yoki ushbu Ofertaning 1-ilovasi shaklida Kredit arizasini topshirish va unda o'zining ERI qo'yish orqali aktseptlaydi. Kredit arizasi Qarz oluvchi tomonidan elektron shaklda yoki

boshqa usullar bilan, shu jumladan ERI dan foydalanib, qonunchilikka zid bo'lmagan va Qarz oluvchining Shartnoma tuzish irodasining mazmunini aniqlashga imkon beradigan usul bilan imzolanadi. Qarz oluvchi tomonidan imzolangan kredit arizasi Oferta va Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu aktsept Bank uchun Qarz oluvchining niyatini oldindan ko'rib chiqish uchun asos bo'ladi.

2.7. Kredit arizasini ma'qullash 2-ilova shakli, Kreditni sondirish jadvali – ushbu Shartnomaga 3-ilova shakli, Ariza-topshiriq - 4-ilova shakli bo'yicha amalga oshiriladi. Shu kunning o'zida Qarz oluvchi Kredit arizasini ma'qullashni, Kreditni so'ndirish jadvalini, Ariza topshirig'ini qabul qilishni va ERI yoki Bank tomonidan taklif qilingan boshqa usul yordamida elektron shaklda imzolash majburiyatini oladi.

2.8. Tomonlar o'rtasida tuzilgan Shartnomaga muvofiq va Qarz oluvchining Kredit arizasi asosida Bank Qarz oluvchiga ushbu Shartnomaga 2-ilova shakli bo'yicha ma'qullangan kredit arizasida ko'rsatilgan shartlar asosida kredit beradi.

2.9. Kredit arizasini ma'qullash kredit summasi, kredit muddati, muddatli qarzдорlik va muddati o'tgan qarzдорlik bo'yicha foiz stavkasi, asosiy qarzlار bo'yicha imtiyozli davri, foizlarni to'lash muddati, kredit valyutasi, kreditni so'ndirish valyutasi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

2.10. Kredit summasi kredit shartnomasiga 3-ilova shakli bo'yicha Kreditni sondirish jadvaliga muvofiq so'ndiriladi. Agar Shartnomaning Kreditni so'ndirish jadvalida nazarda tutilgan kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirish sanasi bank ish kuni bo'lmasa, u holda so'ndirish keyingi bank ish kuniga o'tkaziladi.

2.11. Agar kreditni muddatidan oldin so'ndirish amalga oshirilgan bo'lsa, asosiy qarz bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar ushbu Shartnomaga qo'shimcha kelishuvlar tuzmasdan va So'ndirish jadvallarini rasmiylashtirmasdan kredit shartnomasi jadvaliga muvofiq keyingi to'lovlarga o'tkaziladi.

2.12. Ushbu Shartnomaga 1-ilova shaklidagi Kredit arizasiga muvofiq, Qarz oluvchi kreditdan voz kechgan yoki 2-ilova shakli bo'yicha Kredit arizasini ma'qullashni imzolamagan taqdirda, Qarz oluvchi kreditni bekor qilish majburiyatini yuklaydi va Bank esa bajaradi.

2.13. Ushbu Shartnomaga 1-ilova shaklidagi Kredit arizasiga muvofiq, Bank quyidagilarga haqli:

- Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini Mijozdan va har qanday uchinchi shaxslardan yig'ish (qabul qilish) va unga ishlov berish, shuningdek Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga berish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablari va xalqaro huquq talablarini (xalqaro shartnomalar talablari) hisobga olgan holda shaxsga doir ma'lumotlarni hamma foydalanishi mumkin bo'lgan manbalarda tarqatish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Mijozning shaxsga doir ma'lumotlari bilan har qanday harakatni (operatsiyani) yoki bunday harakatlar (operatsiyalar) majmuini, shu jumladan avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki ulardan foydalanmagan holda, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, yig'ish, ishlov berish, yozib olish, nusxa olish, xazira nusxa olish, himoya qilish, skrinig, Bank ichida va uning tashqarisida (xavfsizlik va maxfiylik talablariga rioya qilgan holda) tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (o'zgartirish, yangilash), chiqarib olish, foydalanish, berish (tarqatish, foydalanishga ruxsat berish, shu jumladan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish huquqiga ega bo'lgan uchinchi shaxslarga berish), egassizlashtirish, blokirovka qilish, o'chirib tashlash, yo'q qilish, shu jumladan, agar bu O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid kelmasa, ushbu harakatlarni Bankning topshirig'i bo'yicha uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilishi.

2.14. Qarz oluvchi, agar "**Tenge Business**" MBXga kredit mablag'larini taqdim etish ma'qullansa, barcha talab qilinadigan va zarur hujjatlar uning (joriy) elektron imzosi bilan imzolanishiga **rozi bo'ladi**, xususan:

- Bank tomonidan taqdim etilgan shartlar asosida kredit olishga;
- "Tenge Business" xizmatida elektron raqamli imzodan foydalanish shartlariga;
- Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va unga ishlov berishga;
- sub'ektning shaxsga doir ma'lumotlarini yig'ish va uning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishga arizasini (Rozilik/Chaqirib olish uchun) imzolashga roziligi (1-ilova);
- shaxsga doir ma'lumotlar sub'ektining shaxsga doir ma'lumotlarini yig'ish va unga ishlov berishga roziligining namunaviy shaklini imzolashga roziligi (1-ilova)
- kredit tarixi to'g'risidagi ma'lumotlarni "Kredit-axborot tahliliy markazi" Kredit byurosiga tekshirish va topshirishga (bundan buyon matnda "KATM" deb yuritiladi);
- Shartnoma doirasida, har qanday qonuniy amaldagi organlardan u to'g'risida ma'lumot olishga;

- Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va unga ishlov berishga, shu jumladan "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DUK, O'zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va boshqa davlat organlari hamda boshqa tashkilotlarga;
- Bankning mobil ilovasi bilan suratga olish va Bankning ichki normativ hujjatlariga muvofiq qarz oluvchining fotosuratidan keyinchalik foydalanishga ;
- kredit skoringini o'tkazish uchun, buning uchun Bank barcha qonuniy manbalardan u to'g'risida maxfiy ma'lumotlarni (shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni) olishi va Bank tomonidan ko'rsatilgan axborotlarni tarqatishi kerak;
- Bank tomonidan dastlabki kredit skoringini amalga oshirish va Bank tomonidan unga Bank joylashgan joyda yoki Bankning savdo nuqtasida murojaat qilmasdan kredit buyurtmasi bo'yicha taklif taqdim etishi;
- Qarz oluvchi tomonidan ish haqi/pensiya va boshqa har qanday tushumlarni olish uchun foydalaniladigan hisobvaraqda, ish haqi/pensiya va boshqa tushumlarni kredit mahsulotini so'ndirish uchun o'tkazish kundan 10 kun oldin mablag'larni zaxiralash uchun va mijoz/qarz oluvchining kredit mahsuloti bo'yicha qarzдорligini (badalni) so'ndirish uchun ushlab qolish/o'tkazish uchun. Agar ushlab turish/o'tkazish kuni bayram va / yoki dam olish kuniga to'g'ri kelsa, o'tkazilgan kun keyingi ish kuni hisoblanadi;
- qarz oluvchining har qanday bank hisobvaraqlaridan, shu jumladan qarz oluvchining nomiga ochilgan barcha bank plastik kartalaridan (shu jumladan qarz oluvchining nomiga jismoniy shaxs sifatida ochilgan) kredit bo'yicha joriy va muddati o'tgan qarzдорlikni va hisoblangan foizlarni, u bo'yicha hisoblangan muddati o'tgan foizlarni so'ndirish uchun aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish uchun.

3. KREDIT BERISH SHARTLARI VA TARTIBI

3.1. Bank bilan kelishilgan Qarz oluvchining arizasi asosida Bank Qarz oluvchiga ushbu Shartnoma va Oferta shartlariga muvofiq kredit beradi.

3.2. Kreditni taqdim etishning batafsil / aniq shartlari – kredit summasi, muddati, valyutasi asosiy qarz va hisoblangan foizlarni so'ndirish tartibi, so'ndirish sanalari va boshqa shartlar Kredit shartnomasi shartlari bilan belgilanadi va Kredit shartnomasining ajralmas qismi hisoblangan 3-ilovasi - Kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq belgilanadi.

3.3. Bank Qarz oluvchiga har bir tegishli tuzilgan Kredit shartnomasi bo'yicha alohida tegishli hisobvaraqlarni ochadi. Kredit / kreditlar berish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda tegishli ssuda hisobvarag'idan Qarz oluvchining hisob-kitob hisobvarag'iga naqdsiz shaklda o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.4. O'zR MBning qayta moliyalash stavkasi o'zgargan yoki kapital bozoridagi resurslar stavkasi oshgan va/ yoki pasaygan taqdirda, Kredit arizasini ma'qullashda ko'rsatilgan kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlar miqdori tomonlarning kelishuviga binoan shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzish orqali qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

4. KREDITNI SO'NDIRISH, FOIZLARNI VA BOSHQA TO'LOVLARNI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBI

4.1. Kredit shartnomasi bo'yicha asosiy qarzni qaytarish Kredit shartnomasining 3-ilovasida ko'rsatilgan Kreditni qaytarish jadvaliga (shu jumladan sanani belgilash bilan) muvofiq, Qarz oluvchilarga 1-ilova shakli bo'yicha kredit arizasini to'ldirishda so'ndirish sanalarini kelishish imkoniyatini taqdim etgan holda amalga oshiriladi.

4.2. Kredit summasi bo'yicha foizlar kredit ajratilgan kundan boshlab Bankka qaytarilgan kundan oldingi kungacha yoki boshqa sabablarga ko'ra tegishli hisobvaraqdan hisobdan chiqarilgunga qadar hisoblanadi.

Juma kuni hisoblangan foizlarni hisoblashda uch kun hisobga olinadi - juma, shanba va yakshanba kunlari foizlarni hisoblash uchun.

4.3. Agar joriy oy juma yoki shanba kuni tugasa, hisoblash mos ravishda bir yoki ikki kun ichida amalga oshiriladi. Haftaning oxirida qolgan kun (kunlar) uchun foizlar keyingi oyning birinchi ish kunida hisoblanadi. Bayram kunlariga nisbatan shunga o'xshash jarayon qo'llaniladi.

4.4. Kreditning asosiy qarzi qoldig'i bo'yicha foizlar har kuni ish kunining oxirida yiliga 365 kun va har oyda haqiqiy kunlar soniga qarab hisoblanadi. Hisoblash kreditning birinchi summasi berilgan kuni boshlanadi.

4.5. Agar kredit bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish sanasi - asosiy qarz va hisoblangan foizlar bank ish kuni bo'lmasa, u holda so'ndirish keyingi bank ish kuniga o'tkaziladi.

4.6. Agar Qarz oluvchi Kredit shartnomasining ajralmas qismi hisoblangan 3-ilovasi "Kreditni qaytarish jadvali"ga muvofiq nazarda tutilgan kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirishni amalga oshirmasa, Qarz oluvchi Bankka kreditning muddati o'tgan qismi uchun shartnomaga Kredit arizasini ma'qullash shartlariga muvofiq, 2-ilovadagi shakl bo'yicha kreditning muddati o'tgan qismiga hisoblanadigan oshirilgan stavka bo'yicha foizlar to'laydi. Kreditning muddati o'tgan qismi uchun foizlar muddati o'tgan hisoblanadi.

Shu bilan birga, kredit bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida sudning hak qiluv qarori chiqarilganda, foizlarni hisoblash va neustoykalar to'xtatiladi.

4.7. Agar Kredit shartnomasi shartlarida belgilangan kredit mablag'larini olish to'liq hajmda amalga oshirilmagan bo'lsa, Shartnomaning 3-ilovasida keltirilgan jadvalga muvofiq asosiy qarz bo'yicha birinchi va keyingi to'lovlar Kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuvlar tuzmasdan va yangi muddatli majburiyatlarni rasmiylashtirmasdan olinmagan kredit summasi miqdorida keyingi to'lovlarga o'tkaziladi.

4.8. Qarz oluvchidan Shartnoma bo'yicha kelib tushadigan pul mablag'lari va/yoki Qarz oluvchining Bankdagi har qanday hisobvaraqlarida hamda boshqa Banklardagi mavjud bo'lgan hisobvaraqlarida, shu jumladan Qarz oluvchi nomiga ochilgan barcha bank plastik kartalarida (shu jumladan Qarz oluvchi nomiga jismoniy shaxs sifatida ochilgan) mavjud bo'lgan pul mablag'lari kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni so'ndirish uchun quyidagi tartibda o'tkaziladi/undiriladi:

- muddati o'tgan asosiy qarz va foizlar bo'yicha qarzdorlikni mutanosib ravishda so'ndirish uchun;
- joriy to'lov bo'yicha hisoblangan foizlar va asosiy qarz;
- neustoyka (penya/ komissiya), jarimalar summasi

4.9. Agar Qarz oluvchining talab qilib olinguncha asosiy depozit hisobvarag'ida 2-kartoteka mavjud bo'lsa, ko'rsatib o'tilgan hisobvaraqdagi pul mablag'lari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni so'ndirish uchun o'tkaziladi.

4.10. Ushbu shartnoma doirasida kredit bo'yicha hisoblangan foizlar va asosiy qarzni so'ndirish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq va/yoki tomonlarning kelishuvi bo'yicha amalga oshiriladi.

4.11. Kredit bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirish, shu jumladan Qarz oluvchining ushbu Kredit shartnomasi shartlaridan kelib chiqadigan muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda, Bank tomonidan Qarz oluvchining to'lov topshiriqlarini bajarish, Bank tomonidan to'ov talabnomalarini aktseptsiz tartibda qo'yish va / yoki Bank tomonidan memorial orderlar bilan Qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan va Banklarda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan kredit miqdori va valyutasida yoki kredit valyutasidan farq qiladigan boshqa valyutada, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq mustaqil ravishda aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

4.12. Shu bilan birga, ushbu Shartnomani tuzish orqali Qarz oluvchi olinayotgan kredit bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi qarz yukining ko'payishi/kamayishi va O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida kreditni so'ndirish bilan bog'liq barcha oqibatlar to'g'risida xabardorligini tasdiqlaydi.

4.13. Qarz oluvchi Bankka mustaqil ravishda, aktseptsiz tartibda Qarz oluvchi nomidan chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun ariza berish, kredit bo'yicha mavjud bo'lgan muddati o'tgan qarzdorligini, shu jumladan asosiy qarzni, hisoblangan foizlarni yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni so'ndirish uchun zarur summada va hajmlarda o'zining mavjud bo'lgan barcha hisobvaraqlaridan chiqarish /o'tkazish huquqini beradi.

4.14. Agar Qarz oluvchining hisobvaraqlarida kredit taqdim etilgan valyutadan farqli boshqa valyuta mavjud bo'lsa, u holda Bank o'z xohishiga ko'ra, birinchi imkoniyat va zaruratda, Qarz oluvchi nomidan aktseptsiz tartibda ariza berishi va mavjud valyutani Bank tomonidan operatsiyani amalga oshirish sanasida belgilangan kurs bo'yicha ichki valyuta bozorida kredit valyutasiga konvertatsiya qilishi/sotishi mumkin. Ushbu

operatsiyani amalga oshirish bilan bog'liq Bankning xarajatlari, shu jumladan kursdagi farqi, komissiyalar va boshqalardan Bankning yo'qotishlari Qarz oluvchi tomonidan qoplanadi.

5. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bank quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Agar Qarz oluvchi 2-ilova shaklida ERI yordamida kredit arizasini Ma'qullashni imzolamasa, Kredit Shartnomasini bir tomonlama ravishda bekor qilish.

5.1.2. Qarz oluvchi tomonidan Kredit shartnomasi shartlari bajarilmagan taqdirda Qarz oluvchiga kredit bermaslik. Bankning Shartnoma bo'yicha kreditlar berishi majburiyati shartsiz emas, ya'ni Bank faqat Qarz oluvchining arizasi asosida kredit yoki kreditlar berishga majbur emas. Bank Kredit shartnomasi doirasida kredit yoki kreditlar berishni rad etishning, shu jumladan Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan iqtisodiy normativlarga rioya qilmaslikning ajralmas shartsiz huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.1.3. kreditlash jarayonida Qarz oluvchidan moliya-xo'jalik faoliyati holati to'g'risida ma'lumot berishni, tegishli litsenziyalar va/yoki boshqa ruxsat beruvchi sertifikatlar/hujjatlarni taqdim etishni, buxgalteriya hisobi va hisobot holatini, kreditning qaytarilishini ta'minlashni talab qilish, bevosita Qarz oluvchidan monitoring/maqsadli tekshiruvlarni o'tkazish, ularning davriyligi Bank tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

5.1.4. asosiy qarzni, foizlarni yoki boshqa har qanday summani o'z vaqtida to'lamaslik tavakkalchiligini kamaytirish uchun asosiy qarzni, foizlarni va/yoki boshqa har qanday summani to'lash muddati tugashidan 5 (besh) bank kuni oldin, Qarz oluvchining kreditini, joriy qarzдорligini so'ndirish uchun hisobvaraqda mablag' to'planishini Qarz oluvchidan talab qilish. Ushbu davrda Qarz oluvchi Bank bilan asosiy depozit hisobvarag'idagi barcha xarajatlar operatsiyalarini muvofiqlashtiradi.

5.1.5. kreditlash jarayonida Qarz oluvchining moliyaviy-xo'jalik faoliyati holatini, buxgalteriya hisobi va hisobot holatini, tegishli monitoringni, kreditning qaytarilishini ta'minlashni tekshirish, shu jumladan, zarur hollarda, joyiga chiqqah holda loyihani ekspertizadan o'tkazish. Bunday tekshiruvlarning davriyligi Bank tomonidan belgilanadi.

5.1.6. hujjatlar Kredit shartnomasi shartlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid ravishda rasmiylashtirilgan taqdirda, Qarz oluvchiga taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha to'lovni rad etish.

5.1.7. alohida kredit shartnomalaridan kelib chiqadigan asosiy qarzni, foizlarni va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirish muddati kelgan taqdirda, Bank Qarz oluvchining Bankdagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan mablag'larni qaytarib bo'lmaydigan va shubhasiz chiqarib oladi, ular bo'lmagan taqdirda esa – boshqa hisobvaraqlardan, shu jumladan boshqa Banklardan ushbu shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarzni, foizlar va/yoki kredit bo'yicha boshqa to'lovlarni so'ndirish uchun to'lov talabnomalarini qo'yadi. Shuningdek, Qarz oluvchida qarzдорlikni undirish uchun kredit valyutasida mablag' yetishmasa, Bank Qarz oluvchining berilgan roziligi asosida 4.13., 4.14.-bandlariga muvofiq mijoz nomidan ariza berishi, Bank tomonidan belgilangan kurs bo'yicha ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olishi/sotishi va Kredit shartnomasi shartlariga muvofiq qarzдорlikni so'ndirish uchun pul mablag'larini yuborishga haqli.

5.1.8. majburiyatlar bajarilmaganligi, muddati o'tgan qarzдорliklar mavjudligi to'g'risida aloqa vositalaridan foydalangan holda telefon raqamiga, faksga, elektron pochtaga SMS xabarnomalar/xatlar/ogohlantirishlar/da'volarni yuridik yoki pochta manziliga, pochta xizmati orqali va/yoki boshqa har qanday aloqa turlari, shu jumladan, Qarz oluvchining manzili bo'yicha tashrif buyurish orqali Qarz oluvchiga ogohlantirishlar, bildirishnomalar yuborish.

5.1.9. majburiyatlarni bajarmaganlik va quyidagi voqealar sodir bo'lgan taqdirda Qarz oluvchi tomonidan ushbu Kredit shartnomasi bo'yicha qabul qilingan shartlarni bajarmaganlik va/yoki lozim darajada bajarmaganlik asosida kreditni to'liq yoki qisman berishni rad etish, Kredit shartnomasi bo'yicha kreditlashni va/yoki yangi kreditlar berishni to'xtatish va muddatidan oldin undirib olish:

1) kreditni qaytarish jadvaliga va boshqa to'lovlarga muvofiq asosiy qarzni va kredit bo'yicha hisoblangan barcha foizlarni o'z vaqtida to'lamaslik;

2) Qarz oluvchi tomonidan Bank bilan tuzilgan Shartnoma, boshqa shartnomalar bo'yicha kreditning/kreditlarning qaytarilishini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni buzish va/yoki bajarmaslik va/yoki lozim darajada bajarmaslik;

3) Shartnoma tuzilgandan keyin kreditning qaytarilishiga ta'sir qiluvchi taqdim etilgan ma'lumotlar va hisobotlarning ishonchsizligi faktlarini aniqlash;

4) Qarz oluvchi/Kafilning moliyaviy holatining yomonlashishi (yo'qotishlar, likvid bo'lmagan balans va boshqalar). uni to'lovga layoqatsiz deb topish;

5) 6.2.3., 6.2.6.-bandga muvofiq Qarz oluvchining bank monitoringi/nazoratidan qochishi, hisobot ma'lumotlarini Bankka taqdim etmaslik;

6) kredit mablag'larini qaytarib bermaslik tavakkalchiligini oshiradigan har qanday shubhasiz omillarning paydo bo'lishi;

7) Agar Qarz oluvchining Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishini xavf ostiga qo'yuvchi Qarz oluvchiga pul summasini to'lash va/yoki Qarz oluvchining mol-mulkini talab qilish va/yoki uchinchi shaxslar tomonidan xatlash to'g'risida da'vo qo'zg'atilsa;

8) Qarz oluvchining pul summolari va/yoki mol-mulkiga undirish va/yoki unga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan hibsga olish, uning miqdori qarz oluvchining ushbu kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishini xavf ostiga qo'yadi;

9) Qarz oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan talablarga muvofiq Bankka aloqador bo'lib qolgan holatlarda, bunda kredit bo'yicha ta'minot Bankni qanoatlantiradigan mol-mulk garovi shaklida bo'lishi va kredit bo'yicha asosiy qarz qoldig'i summasining kamida 130 foizini tashkil qilishi kerak.

